

**ARTICLE INFO**

Received: 5th May 2021
Accepted: 10th May 2021
Online: 15th May 2021

KEY WORDS

Painter, sculptor, art.

**THE YOUNG PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN,
SCULPTURER JASVANT ANNAZAROV**

Yuldashov Sulaymon Nizomaddinovich ¹

¹ Student of the Faculty of Art History of the National Institute of Art and Design
named after Kamoliddin Behzod m Email: sulaymon2305@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4963032>

ABSTRACT

One of the urgent tasks of our time is to study the development, problems, traditions and trends of such a complex, with wide creative possibilities of art, as sculpture, systematic lighting, study, research of the creativity of artists engaged in creative activities. In the history of fine art in Uzbekistan, the first place has always been occupied by painting, and sculptural art developed relatively poorly, the study and study of which is somewhat behind the views of art historians of that time. The reason is that, judging by the samples of research in scientific sources, it is sculptural art that has undergone many contradictions. Based on the above-mentioned topical issues, we have set a goal to study and analyze the creative activities, scientific and practical experience, works of art of one of the honored young sculptors of our country, Zhasvant Annazarov.

**O'ZBEKISTONNING ENG YOSH XALQ RASSOMI, HAYKALTAROSH
JASVANT ANNAZAROV**

Yuldashov Sulaymon Nizomaddinovich ¹

¹ Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik fakulteti talabasi m Email: sulaymon2305@mail.ru

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021
Ma'qullandi: 10-May 2021
Chop etildi: 15-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Rassom, haykaltarosh,
san'at

ANNOTATSIYA

Haykaltaroshlik san'atidek murakkab, ijodiy imkoniyatlari keng san'atning rivoji, muammolari, an'analari va tendensiyalarini o'rganish, ijodiy faoliyat ko'rsatayotgan san'atkorlarni ijodini muntazam tarzda yoritish, o'rganish, tadqiq etish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixida doimo dastlabki o'rinlarni rangtasvir egallab kelgan, haykaltaroshlik san'ati esa nisbatan sust rivojlangan bo'lib, ularni o'rganish, tadqiq qilish ayni davr san'atshunoslarining nazaridan biroz chetda qolmoqda. Sababi, ilmiy manbalardagi tadqiqotlar namunaloriga qaraganda, aynan haykaltaroshlik san'ati juda ko'plab qarama-qarshiliklarga uchragan. Yuqoridagi dolzarb masalalardan kelib chiqib, yurtimizning faxrli yosh haykaltaroshlaridan biri Jasvant Annazarovning ijodiy faoliyati, ilmiy-amaliy tajribasi, yaratgan ijodkorlik asarlarini o'rganish va tahlil etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.



KIRISH

Haqiqiy ijodkor doimiy izlanishda bo'ladi. Bu borada u o'zidan avvalgi maktablar, uslublar va yo'nalishlarni sinchiklab nazar tashlar ekan, ulardagi eng mumtoz, mukammal va shu bilan birga oddiy chizgilarning sirlarini o'rganishga, tugunlarni yechishga harakat qiladi. Shu intilish va tadqiqiy tahlil etish bilan o'ziga ijodiy yo'l tanlaydi hamda undan sabrmatonat bilan borishga harakat qiladi. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligida milliy mavzularning ko'lami kengayib, plastik kashfiyotlar borasida ham ma'lum ko'rsatgichlar egallanishida, ham dasgohli, ham mahobatli haykaltaroshlikda samarali ijod qilib kelayotgan yosh haykaltarosh Jasvant Annazarov ijodining o'rni benihoya katta hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni yuzasidan, haykaltarosh Annazarov Jasvantbek Bahromovich "O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi" faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

Yurtimizning plastik san'at vakillari qatorida o'zining munosib o'rniga ega ijodkor, O'zbekiston Badiiy uyushmasi a'zosi, "E'tirof-2015" an'anaviy tanlovining "Yilning eng yaxshi haykaltaroshi" nominatsiyasi g'olibi, poytaxtimizdagi "TIART" ma'suliyati cheklangan jamiyati haykaltaroshlik korxonasi direktori Jasvant Annazarov 1987-yilning 12-iyun sanasida Xorazm viloyatining Urganch shahrida rassom oilasida tavallud topgan. San'atning nozik sir-asrorlarini maktab chog'idanoq

qunt bilan o'rgangan haykaltarosh, 2004-2010 yillar mobaynida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida professional ta'lim sohasini mukammal egallaydi.



O'zbekiston xalq rassomi Jasvant Annazarov

J. Annazarovning talabalik davridagi o'ziga xos iste'dodi, kurtak otayotgan iqtidorini ko'rganlar, u haqida faqat ijobiy fikrlar bildirishadi, sababi yosh haykaltarosh talabalk davridayoq san'at ahlining e'tibor va xurmat markaziga tushgan edi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti San'at tarixi va nazariyasi kafedrasida mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Dilzoda Alimkulova yosh ijodkor to'g'risida o'z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, ijodkorning o'qishga qabul qilinishidan oldin ya'ni abituriyentlik davridayoq mukammal iste'dodiga guvoh bo'lganligini aytgan edi. "Jasvant endi o'qishga kirmoqchi bo'lgan davrlarda, imtixonga kelgan paytlarida uning ijodiy ishlarini ko'rib, abituriyent deb o'ylamasdingiz. O'sha paytni o'zidayoq xalq



rassomi edi. O'ziga xos iqtidori tufayli, hamma unga mehr qo'ygan edi. Abituriyentlik davridayoq taniqli bo'lib ketgan edi, mana ko'rib turibsizki, bir pastda xalq rassomi bo'ldi" – deydi Dilzoda Alimkulova.

Tinimsiz mehnat qilayotgan, doimiy ravishda yangi g'oyalar izlayotgan san'atkor haqida maqtovlardan iborat fikr bildirishga ehtiyoj yo'q. Har qanday izlanuvchan ijodkorda bo'lgani singari Jasvant Annazarov ijodida ham uning "o'zligini", "o'z uslubini" ifodalab turuvchi asarlar mavjud. Ijodkor o'z yaratgan asarlari uchun etnik, mifologik va tarixiy mavzularga ko'proq murojaat etgan bo'lsada, lekin asosan klassik an'analar va yangi texnologiyalardan foydalanib, portret va mavzuli kompozitsiyalar ishlaydi. Endilikda, Jasvant Annazarov o'zi tahsil olgan oliygohda xuddi ustozlari O'zbekiston xalq rassomi Ravshan Mirtojdiyev kabi bo'lg'usi haykaltaroshlarga ustoz sifatida saboq bermoqda.

Jasvant Annazarov ijodiga mansub dastgohli va mahobatli haykaltaroshlikdagi asarlar o'zaro bir-birini plastik jihatdan to'ldirib turadi. Har bir yangi asarga o'tish jarayonida, haykaltarosh har safar yangi ifodaviy vositalarni topishga, ularni haykaltaroshlikda qo'llaniluvchi qaysar xom ashyolarga bo'ysundirishga intilgan. Agar haykaltarosh o'zining mahobatli asarlarida obrazni ifodalashda avvallari sinalgan usullardan foydalansa, mayda shakldagi dastgohli haykallarda kerakli shakllar ustida izlanishga, yangicha plastik yechimlar topishga harakat qiladi. Haykaltarosh dastgohli ishlarida shartli, ramziy plastik izlanishlar olib borishni xush ko'radi. Ammo, mahobatli ishlarida, xususan, tarixiy siymolar, real shaxslar portretlarini yaratishda xalq tasavvurida

qolgan, kitoblarda tasvir etilgan tasniflarga suyanib ishlashni ma'qul ko'radi.

Dunyoni yangicha ko'rish masalasi ijoddagi eng murakkab jarayon. Bu falsafiy yo'nalishlar, diniy, tarixiy, madaniy meroslar bilan bog'liq bo'libgina qolmay, ayni paytda shaxsiy munosabatlar, ta'biylik, his-tuyg'ular silsilasi hamdir. Uning chegarasi, me'yori, ko'lami san'atkor salohiyati bilan bog'liq.¹

Jasvant Annazarov "Bo'sag'ada", "Onalik" va boshqa bir qator asarlarida statik sokinlikka katta urg'u berilgan bo'lsa, ba'zi bir ijodkorlik namunalari formalari, shakllarida dinamik harakatni berishga intiladi. Haykaltaroshlikda xohlaymizmi yo'qmi qattiq jismlardan ishlanganligi sababdan, ko'p holatlarda haykallar statik bo'ladi, faqat turlicha keskin shakllariga kompozitsiyada dinamik harakatlar jarayonini tasvirlashga turtki bo'ladi. Ijodkorning yana bir e'tiborga molik umumiy xususiyatlaridan yana biri, materialni tugallanmaganligini ta'kidlab o'tishga harakat qiladi. Bu ehtimol, tabiatdagi shakllar tugal holatda bo'lmiydi, doimiy ravishda shakllanib, rivojlanib boradi va hech bir shakl abadiy bir holatda bo'lmiydi degan nazariya ilgari surilayotganligidan dalolat berayotgandir. Ushbu ehtimoliy nazariya Jasvant Annazarov ijodkorlik ishlarida ham mavjuddir.

Jasvant Annazarovning "Asov" nomli kompozitsiyasi esa, ayni paytgacha haykaltaroshlar tomonidan ishlab kelingan ot kompozitsiyalaridan rakurs va shakl tomonlama keskin farq qiladi. Dinamikaga boy ushbu kompozitsiyada, bo'ysunmasdan o'zini har qayoqqa otayotgan asov otning harakatini tasvirlashga harakat qilgan.

¹ Н.Норматов "Д.Рўзиев: мужассама ва ранг вобасталиги" // Тошкент – Санъат., 1999. - №2 25 б.

Haykaltaroshlikda yoki rangtasvirda bu kabi rakursdagi, shakldagi otni deyarli kuzatmaymiz. Aytishimiz mumkinki, bu ham yangicha bir san'atkorona tomosha. Asov otlar asosan o'zini osmonga otayotgan, orqaga tashlayotgan yoki bir oyog'ini tepaga ko'tarayotgan holatlarda kuzatamiz. Lekin, bu kompozitsiyada o'zini

har qayoqqa otib, g'ujanak bo'lib qolgan oniy lahzasini ifodalashga harakat qilgan. Haykaltarosh o'ziga berilgan forma bilan ishlashga harakat qilgan va bu formalar bo'ysunmas bir ozodlikka intiluvchi ruhni, bo'ysunishga harakat qilayotgan kuchlar bilan qarama-qarshilikni aks ettirishga harakat qiladi.



"Asov" 2021-yil

"Bo'sag'ada" kompozitsiyasi qaysidir bir ma'noda ramziy ahamiyatga ega. Ushbu asarda libossiz yosh yigit eshik oldida hayotdagi qaysidir bir bo'sag'ada turgan holati tasvirlangan bo'lib, ehtimol, bu insonning hayotga tug'ilishi va uni hayot yo'li to'g'risida gapiradigan kompozitsiya hisoblanadi. Bu yerda haykaltarosh hajm bilan ishlamaydi, uning asosiy maqsadi insonni mavhum bo'lgan hayot yo'lini yoki birorta boshlagan yangi ishini aks ettirish hisoblanadi. Bu kompozitsiyada visual bir o'yin mavjud bo'lib, bo'sag'adagi yigitning oyog'idan go'yoki bir soyadek ko'rinadi. Soyaning faqatgina oyoq qismi judayam ulkan qilib berilgan va uyog'i ko'p holatda orqadan tushayotgan yorug'lik qaysidir



"Bo'sag'ada" 2021-yil

ma'noda sinadi va devolga ulanib kelishi mumkin. Ushbu asardagi oyoq soyasi visual jihatdan juda uzaytirilgan. Haykaldagi yigit haykali silliqqlangan va sayqal berilgan holatda tasvirlangan bo'lsa, uning soyaga o'xshab ifodalangan oyoq shakllari judayam g'adir-budir, o'nqircho'nqirlardan iboratligini va bu yo' judayam uzun va mashaqqatlilikidan darak beradi. Ushbu haykalning yana bir xususiyati, nafaqat oyoqlar soyasi balki, uzundan-uzun hayot yo'li sifatida ham berilgan. Ya'ni, torlik, kengliklardan ibodat insonning shakllanish yo'li bilan bog'liq. Asosiysi inson eshik ortida qolib ketmasligi va o'zlikni anglash bosqichiga o'tishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

J. Annazarov asarlarini tahlil etish jarayonida e'tiborga molik yana bir xususiyat to'g'risida gapirmaslikning iloji yo'q. Haykaltarosh ayol, ona mavzulariga kelganda, boshqa asarlaridagi singadi o'rkir burchakli chiziqlari, tugallanmagan abstrakt shakllari mayinlashar ekan. Biz buni, "Onalik" va "Yangi oila" asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ikkala asarda ham shakllar yumshoqligi, ko'proq aylana shakllarga murojaatni shuningdek, obrazlarning nafisligi, nazokatini oshirish maqsadida ularning uzaytirilishi ijodkorning ayollarga, onalarga katta darajadagi xurmati va jiddiy masala deb munosabat bildirishidan dalolat beradi. Haykaltarosh barcha yaratgan asarlarida ayol obrazini keskin, qo'pol shakllardan yiroq tarzda ifodalalaydi. Ijodkor uchun ayol – noziklik, nazokat, go'zallik, nafosat ramzi ekanligi har bitta yaratilgan haykaltaroshlik asarida namoyon bo'ladi.

"Onalik" asarida ijodkor umumlashmalik, yumshoq shakllar keskinligini ko'rishimiz mumkin. Ona obrazidagi yuz qiyofasi aniq tasvirlanmagan, qo'llari, oyoqlari, tizza qismidan keskin kesilganlik va bo'ksa qismi

kattalashtirilib, umumiy bir shaklga aylantirib yuborilishi, ayolning tanasi yaxlit bir qorishmadek tuyuladi. Asarda ayol obrazining yuz qismi aniq tasvirlanmagan bo'lsada, lekin yorqin oltin jilosini beruvchi qorishma ayol yuziga va qo'llariga surilgan. Bu esa, kompozitsiyani yorug' atmosferada qo'yilgandagi ko'rinishidam alohida tovlanib, obrazga yanada ulug'vorlik baxsh etadi. Shuningdek, kompozitsiyada asosiy e'tibor farzand onaning bir qismi, bir parchasi sifatida ifodalanib, har bir farzand ona suti orqali ulg'ayishi va aynan onalik tabiatdagi almashinuv siklini ta'minlovchi bir omil ekanligini shuningdek, bu jarayon tabiatdagi buyun hodisa ekanligi tasvirlangan. Ayniqsa, ona obrazining me'yoridan ortiq kattalashtirilishi, oyoq, tors qismlarining noproportional ravishda yiriklashtirilishi qaysidir bir ma'noda, yaratuvchanlik, yangi hayot o'z o'zidan bo'lmasligi, hayot davom etishi, insoniyatning bardavom sikl asosida ko'payishi jarayonida asosiy jafokashlik ko'proq ayollarning zimmasiga tushishi aks ettirilgan.



"Onalik" 2020-yil



*"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasidagi
"Mangu jasorat" monumenti*



Haykaltarosh Jasvant Annazarov hayotda ham, ijodda ham vazminlik bilan harakat qiladi. U ijod qilayotganida hamma narsani e'tiborga olib, aniq maqsad bilan intiladi. Haykaltaroshning asarlari hech bir narsa boshqa narsalarsiz mavjud bo'la olmasligi, barcha narsa bir-biri bilan bevosita bog'liq, uzviy aloqador ekanligidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ko'rsatmasiga asosan, poytaxtimizda qad rostlagan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida tarixdan so'zlovchi **"Mangu jasorat"** monumenti mavjud bo'lib, ushbu monument bo'yicha, 2019-yilda tanlov o'tkazilgan edi. Tanlovda g'olib deb topilgan mazkur kompozitsiya va mahobatli stella loyihasining muallifi ham haykaltarosh Jasvant Annazarov hisoblanadi. Ijodkor ushbu kompozitsiyada o'zining ulkan ijodiy mehnatini zavqu shavqqa to'lib ado etganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-son Farmoni yuzasidan, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida 21-may kuni **"I Yosh ijodkorlar Forumi"** va ochiq eshiklar kuni tashkil etildi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq muloqotlardan iborat forum doirasida, O'zbekiston xalq rassomi, yosh haykaltarosh Jasvant Annazarov va rangtasvirchi rassom Gulnoz Jalolovanning **"Vatan taraqqiyotiga mening hissam"** nomli ko'rgazmasi tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тасвирий санъати антологияси. Хайкалтарошлик. II жилд. Санъат. – Тошкент, 2011. 224 б.
2. Д.Пўлатов. Ўзбекистон замонавий ҳайкалтарошлигининг ривожланиш тамойиллари. Санъатшунослик номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация Автореферати. ЎзБА. Санъатшунослик илмий тадқиқот институти. – Тошкент, 2008. 21 б.
3. Н.Ойдинов. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лойиҳалар. – Тошкент. «Ўқитувчи» 1997.
4. N.Abdullaev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". Toshkent, – 2007. 191-195 b.
5. В.Р.Виппер. "Введения исторические изучение изобразительного искусство" – Москва. Изобразительного искусство. – 1985 г.